



## BOTIR ZOKIROV: O'ZBEK ESTRADASINING YORQIN YULDUZI VA MILLIY FAXRIMIZ

**Mamadjonov Samandar Sobirjon og'li**  
*O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti Estrada xonandaligi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Botir Zokirov – o'zbek estradasining asoschilaridan biri, milliy musiqamizni dunyoga tanitgan va uni yuksak darajaga ko'targan buyuk san'atkordir. Uning nomi nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro miqyosda ham faxr bilan tilga olinadi. Botir Zokirov ijodi, hayoti va san'atga bo'lgan beqiyos xizmatlari haqida so'z yuritish – bu nafaqat o'tgan davrni yodga olish, balki kelajak uchun ilhom olish demakdir.

**Kalit so'zlar:** Botir Zokirov, O'zbek estradasi, Milliy musiqa, Estrada asoschisi, Madaniy meros, Musiqa ijodi, Xalqaro miqyos, Milliy g'urur, Ijodiy faoliyat, San'at tarixi, Musiqiy asarlar, Karim Zokirov, Jamshid Zokirov, O'zbekiston.

**Аннотация:** Ботир Закиров – один из основателей узбекской эстрады, великий артист, который представил нашу национальную музыку миру и поднял её на высокую ступень. Его имя с гордостью упоминается не только в Узбекистане, но и на международной арене. Говорить о творчестве, жизни и бесценном вкладе Ботира Закирова в искусство – это не только вспоминать прошлое, но и черпать вдохновение для будущего.

**Ключевые слова:** Ботир Закиров, Узбекская эстрада, Национальная музыка, Основатель эстрады, Культурное наследие, Музыкальное творчество, Международное признание, Национальная гордость, Творческая деятельность, История искусства, Музыкальные произведения, Карим Закиров Джамишид, Закиров Узбекистан.

**Annotation:** Botir Zokirov is one of the founders of Uzbek estrada, a great artist who introduced our national music to the world and elevated it to great heights. His name is proudly mentioned not only in Uzbekistan but also internationally. To talk about Botir Zokirov's creativity, life, and invaluable contribution to the arts means not only remembering the past but also drawing inspiration for the future.

**Keyword:** Botir Zokirov, Uzbek Estrada, National music, Founder of Estrada, Cultural heritage, Musical creativity, International recognition, National pride, Artistic activity History of art, Musical works, Karim Zokirov, Jamshid Zokirov, Uzbekistan.

### San'atkor oilasidan chiqqan yulduz.

Botir Zokirov 1936-yil 26-aprelda Moskva shahrida taniqli san'atkorlar oilasida tug'ilgan. Uning otasi Karim Zokirov o'z davrining mashhur qo'shiqchilaridan biri bo'lib, o'zbek mumtoz musiqasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Otasidan o'tgan san'atga bo'lgan muhabbat Botirning bolaligidayoq uning qalbida chuqur ildiz otgan. Bu muhabbat keyinchalik nafaqat uning ijodiy yo'lini belgiladi, balki uni milliy musiqamizning yuksak cho'qqilariga olib chiqdi. Zokirovlar oilasi san'at sohasida bir nechta iste'dodlarni yetishtirgan. Botirning ukalari – Jamshid Zokirov va Farrux Zokirov ham o'zbek madaniyati rivojida munosib o'rinn tutgan



ijodkorlardir. Jamshid Zokirov iste'dodli teatr va kino aktyori sifatida tanilgan bo'lsa, Farrux Zokirov ham musiqiy san'atda o'z o'rniga ega. Bu oila butunlay san'at va ijodga bag'ishlanganligini o'zbek xalqining tarixida muhrlab qoldirdi. Onasi Shoista Saidova ham ijodiy iste'dod egasi bo'lgan. Botir Zokirov xalqaro maydonda o'zbek estradasini tanitgan san'atkor sifatida e'tirof etiladi. U 1957-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Yoshlar va talabalar xalqaro festivalida "Arab tango" qo'shig'i bilan katta mashhurlikka erishgan va dunyoning turli tillarida kuylagan. Botir Zokirov 1972-yilda "Myuzik-xoll" ijodiy jamoasini tashkil etgan. U estradani Sharq folklori bilan uyg'unlashtirib, milliy musiqani yangi yuksakliklarga olib chiqdi. U "Yalla" ansamblining shakllanishiga ham bevosita hissa qo'shgan. U 29 yoshida "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'lgan. Uning nomiga xalqaro estrada tanlovi va davlat stipendiyasi tashkil etilgan. 2024-yilda Toshkentda Botir Zokirovga haykal o'rnatilgan va uning nomidagi memorial muzey tashkil etilishi rejalashtirilgan. Botir Zokirovning ukasi Farruh Zokirov ham taniqli san'atkor, "Yalla" ansamblining rahbari hisoblanadi. Ularning oilaviy ijodiy merosi o'zbek madaniyatining oltin fondidan joy olgan. Botir Zokirov nafaqat san'atkor, balki yozuvchi, rassom, va aktyor sifatida ham faoliyat olib borgan. U o'z umrining qisqa bo'lishiga qaramay, boy madaniy meros qoldirgan va hozirgacha o'zbek san'atining faxri bo'lib qolmoqda.

Botir Zokirov o'zining ilk chiqishlaridanoq milliy estrada san'atiga yangicha nafas olib kirdi. Uning ovoz diapazoni, Sharq musiqasi ohanglari va zamonaviy estrada elementlarini uyg'unlashtirish mahorati tinglovchilarni hayratda qoldirdi. U kuylagan qo'shiqlar milliy madaniyatning eng nafis jihatlarini o'zida mujassam etib, xalq qalbiga kirib bordi.

Jumladan:

- "**Maftun bo'ldim**", "**Umid**", va "**Ra'no**" kabi asarlar uning ijrosida milliy estrada merosiga aylangan.
- "**Arab tangosi**" qo'shig'i esa xalqaro miqqosda ham tanilgan va unga ulkan shuhrat keltirgan.

Botir Zokirov sahnada har bir qo'shig'ini chin yurakdan ijro etar, tinglovchilar esa uning ovozida milliy rujni his qilardi. Uning har bir chiqishi – bu san'atning asl mohiyatini namoyish etuvchi unutilmas voqeа edi.

Botir Zokirov nafaqat o'zbek estrada san'atining asoschisi, balki O'zbekistonning xalqaro madaniy elchisi sifatida ham tan olingan.

Undan tashqari, uning hayotiga bag'ishlangan badiiy film suratga olish va xalqaro estrada san'ati tanlovini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bu tashabbuslar



Botir Zokirovning san'atimiz rivojiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etish va uning xotirasini abadiylashtirish maqsadini ko'zlaydi U o'z she'rlari, hikoyalari va ocherklari bilan o'zbek adabiyotiga ham hissa qo'shgan. Shuningdek, u rassomchilik bilan ham shug'ullangan. Botir Zokirov kinoda ham faol bo'lган. 1980-yilda "Avitsennaning yoshlik yillari" nomli ko'п seriyali filmda otaning rolini ijro etdi. 1982-yilda esa "Olovli yo'llar" filmida Rabindranat Tagorni o'ynagan. U vafotidan keyin "Buyuk xizmatlari uchun" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan taqdirlangan. Bu uning O'zbekiston madaniyati va san'atiga qo'shgan ulkan hissasini tan olishning yorqin dalilidir. Botir Zokirov 1985-yilda og'ir kasallik oqibatida vafot etgan va Toshkentdagi Chig'atoy memorial qabristoniga dafn etilgan. Uning nomi bugungi kungacha o'zbek madaniyatining ramzi sifatida tilga olinadi

Botir Zokirovni o'zbek estradasining asoschisi deb atash aslo mubolag'a emas. U Sharq mumtoz musiqasi va zamonaviy estrada san'atini o'ziga xos tarzda birlashtirib, butunlay yangi yo'nalish yaratdi. Ushbu yo'nalish bugungi kunda ham davom etib, yangi avlod ijodkorlariga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Botir Zokirov milliy estrada musiqamizni xalqaro darajaga ko'tarib, o'zbek madaniyatini dunyoga tanitdi. U nafaqat qo'shiqlarida, balki teatr va kino san'atida ham o'zining yorqin izini qoldirgan.

2024-yil 16-may kuni Toshkent shahrida Botir Zokirovga bag'ishlangan haykalning ochilishi bu ulkan ijodkorga ko'rsatilgan ehtiromning yorqin namunasi bo'ldi. Ushbu tadborda Prezident Shavkat Mirziyoyev san'atkorning milliy madaniyatimiz rivojiga qo'shgan ulkan hissasini alohida ta'kidladi va yangi avlodning Botir Zokirov yo'lini davom ettirishi muhimligini eslatdi. Tadbir doirasida uning nomida xalqaro ko'rik-tanlov, memorial muzey va davlat stipendiyasi tashkil etilishi rejalashtirilgani ma'lum qilindi.

Biz – yosh avlod vakillari, Botir Zokirovning davomchilarimiz. U bizga milliy musiqani sevish, uni qadrlash va asrab-avaylashning naqadar muhimligini o'rgatdi. Bugungi kunda uning ijodi milliy san'atning eng yorqin sahifalaridan biri sifatida e'zozlanmoqda. Biz uning boy merosini davom ettirishimiz, o'zbek estradasini yanada rivojlantirishimiz va dunyo miqyosida tanitishimiz shart. Uning ovozi va mahorati biz uchun nafaqat ilhom, balki mas'uliyatdir.

Botir Zokirovning hayoti va ijodi – bu milliy g'ururimizning yorqin timsolidir. Uning yo'li davom ettirilgan sari, o'zbek san'ati osmonida yulduzlar ko'payib, botmasligi aniq!



**Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Karimov, O. "O'zbekiston estrada san'ati tarixi", Toshkent, 2018.
2. Botir Zokirov ijodiy merosiga bag'ishlangan maqolalar to'plami, O'zbekiston Davlat Konservatoriysi nashrlari, 2024.
3. "O'zbekiston madaniy merosi va milliy san'at yulduzları", Toshkent, 2021.
4. Internet manbalaridan: O'zbekiston san'at tarixi haqidagi veb-saytlar va maqolalar.

